Central Asian Research Journal of Natural and Exact Sciences
INTERNATIONAL SCIENTIFIC, APPLIED AND THEORETICAL JOURNAL
2026 / № 1(3)
SCIENCE FOR A SUSTAINABLE CENTRAL ASIA

# 10-SINF O‘QUVCHILARIDA 4K KO‘NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Yuldasheva Oyjamol Davronbek qizi**

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti
E-mail: oyjamolyuldasheva44@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur tezis 10-sinf maktab va litsey o‘quvchilarida 4K ko‘nikmalarini takomillashtirish masalasiga qaratilgan. 4K (kritik fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik va kreativlik) ko‘nikmalari zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilar uchun ularning ta’lim jarayonida samarali bilim olishiga yordam beradi. Ushbu tadqiqotda 10-sinf maktab va litsey o‘quvchilarida 4K ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari, samaradorligi va bu ko‘nikmalarni ta’limda qo‘llash imkoniyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari 10-sinf o‘quvchilarida bu ko‘nikmalarni o‘rganishga yo‘naltirilgan takliflar beradi.

Zamonaviy ta’lim tizimi doimiy ravishda o‘zgarmoqda va uning eng muhim talabi o‘quvchiga sifatli bilim berishdan iborat. Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchilarda nazariy bilim, balki 4K ko‘nikmalariga ega bo‘lish ham talab qilinadi. Bu ko‘nikmalar: kritik fikrlash, kommunikatsiya, kollaboratsiya va kreativlik o‘quvchini samarali va innovatsion bilim olishiga yordam beradi. 10-sinf o‘quvchilari 4K ko‘nikmalari orqali amaliy bilimga fikrlashga o‘zini rivojlantirishga ega bo‘lishlari zarur. Shu bilan birga, 4K ko‘nikmalarining Geografiya faniga oid mavzularda qanday ishlatilishini o‘rganish, o‘quvchilarning bilim sifatini qiziqishini 4K orqali oshirishga yordam beradi.

## 4K ko‘nikmalarining mohiyati va ta’limdagi ahamiyati

4K ko‘nikmalari ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini samarali tashkil etishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu ko‘nikmalarni o‘qituvchilar o‘z faoliyatida qo‘llash orqali o‘quvchilarni faollashtirish, ularning yaratish salohiyatini rivojlantirish, jamoada ishlash ko‘nikmalarini o‘rganish va murakkab masalalarga yechim topishda yordam bera olishadi.

Geografiya fanini o‘qitishda bu ko‘nikmalarning ahamiyati ayniqsa katta, chunki

Geografiya ilmiy jihatdan kerakli va murakkab mavzularga ega bo‘lib, ularni tushunish va izohlash orqali o‘quvchilarda 4K ko‘nikmasini oshirish mumkin.

**4K ko‘nikmalarini 10-sinf o‘quvchilarida rivojlantirishning usullari**

Geografiya fanini 10-sinf o‘quvchilarida 4K ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun bir qancha usullar mavjud. Ulardan ba’zilari quyidagilardir: Kritik fikrlash: O‘quvchini ma’lumotni tahlil qilish, nazariy va amaliy bilimlarni yangi geografik jarayonlarni tushunish va izohlashga o‘rgatish. Kommunikatsiya: O‘quvchilarni geografik bilimlar bo‘yicha tengdoshlari bilan samarali muloqot qilishga o‘rgatish, savol-javob usullari va interaktiv darslar orqali bilimlarni izhor qilishni rivojlantirish. Kollaboratsiya: Jamoa bilan ishlash orqali geografik ma’lumotlarni, guruhda ishlay olish va jamoani hamkorlikda ma’lumot bilan ishlashga o‘rgatish. Kreativlik: Geografik topshiriqlarda ijodiy yondashuvlar orqali, yangi g‘oyalar ishlab chiqish va geografiya fanida innovatsion fikrlashni o‘rganish.

**10-sinf o‘quvchilari uchun Geografiya fanidan 4K ko‘nikmalariga asoslangan metodikalar**

10-sinf o‘quvchilari uchun 4K ko‘nikmalariga asoslangan metodikalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Litsey va maktablarda 4K ko‘nikmalarini o‘z ichiga olgan dasturlarni joriy etish, o‘qituvchilarning pedagogik va ilmiy savodxonligini oshirishga yordam beradi. Misol uchun, geografiya fanini o‘qitishda platformalardan foydalanishga undash, yangi metodlarni joriy qilish va o‘quvchilarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish metodikasi amaliyotni takomillashtiradi.

**4K ko‘nikmalarining ta’limda qo‘llanilishi**

Zamonaviy ta’lim tizimida 4K ko‘nikmalarini maktab va litseylarda qo‘llash geografiya fanini o‘rganishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilarni bu ko‘nikmalar orqali fanga qiziqishini oshirish, o‘quvchilarni nafaqat ilmiy bilimlar, balki shaxsiy va jamoaviy ko‘nikmalar bilan ham tanishtirishni ta’minlaydi. Zamonaviy tadqiqotlar 4K ko‘nikmalarining ta’lim tizimiga ta’siri haqida ko‘plab fikrlarni ilgari suradi. Xususan, R. L. Kolbning (1984) o‘zgaruvchan o‘quv jarayonlarini tavsifi va D. H. Jonsonning (2002) jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishga oid ishlari ta’lim

metodologiyasiga muhim hissa qo‘shgan.

**Xulosa**

Geografiya fanini maktab va litsey o‘quvchilarida 4K ko‘nikmasini takomillashtirish ta’lim tizimining zamonaviy talablari asosida muhimdir. Ushbu ko‘nikmalar o‘quvchilarni dars jarayonida samarali ishlashga, jamoada innovatsion va yaratish imkoniyatlarini taqdim etishga yordam beradi. Geografiya fanini o‘qitishda 4K ko‘nikmalarini qo‘llash nafaqat fanni anglashga to‘g‘ri tushunishga, balki o‘quvchilarni jamoaviy ishlashga, yangi g‘oyalar yaratishga va tabiatga bo‘lgan qiziqishini oshirishga o‘rgatish imkoniyatini beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Kolb, R. L. (1984). Experiential learning: Experience as the source of learning and development. Prentice Hall.1–250.

2. Jonson, D. H. (2002). Cooperative learning: Integrating theory and practice. Allyn & Bacon. 25–300.

3. Elstner, D. W. (2006). Innovative teaching methods in biology. Journal of Biological Education. 35–50.

4. Sherzodov, M. S. (2011). Pedagogical aspects of teaching natural sciences in secondary schools. Tashkent: Teacher Publishing House. 78–115.